

**YOSHLAR TAJOVUZKORLIK KAYFIYATINING IJTIMOIIY-
PSIXOLOGIK AHAMIYATI**

Ung'alova Munisa Saydazim qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti Ijtimoiy ish yo'nalishi

1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yoshlar tajovuzkorlik kayfiyatining ijtimoiy-psixologik mohiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada tajovuzkorlik tushunchasining mazmuni, uning psixologik va ijtimoiy omillari, yoshlar orasida namoyon bo'lish shakllari hamda salbiy oqibatlari yoritilgan. Shuningdek, oilaviy muhit, tengdoshlar ta'siri, internet va ommaviy axborot vositalarining yoshlar tajovuzkorligining shakllanishidagi o'rni tahlil etilgan. Maqolada yoshlar orasida tajovuzkorlik kayfiyatining oldini olishga qaratilgan psixologiya va profilaktika choralarining ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *yoshlar, tajovuzkorlik, agressiya, ijtimoiy muhit, psixologik omillar, deviant xulq-atvor, kiberagressiya, profilaktika.*

**THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL NATURE OF AGGRESSIVE BEHAVIOR
AMONG YOUTH**

Annotation: *This article provides a scientific analysis of the socio-psychological nature of aggressive behavior among young people. It examines the meaning of aggression, its psychological and social factors, forms of manifestation among youth, and its negative consequences. The study also analyzes the role of family environment, peer influence, the internet, and mass media in the formation of youth aggression. The article emphasizes the importance of psychological and social preventive measures aimed at reducing aggressive behavior among young people.*

Keywords: *youth, aggression, social environment, psychological factors, deviant behavior, cyber aggression, prevention.*

**СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ АГРЕССИВНОГО
ПОВЕДЕНИЯ МОЛОДЕЖИ**

Аннотация: *В данной статье научно анализируется социально-психологическая сущность агрессивного поведения молодежи. В статье раскрывается содержание понятия агрессии, ее психологические и социальные факторы, формы проявления среди молодежи, а также ее негативные последствия. Также анализируется роль семейной среды, влияния сверстников, интернета и средств массовой информации в формировании агрессивного поведения молодежи. В статье обоснована*

важност психологических и социальных профилактических мер, направленных на предотвращение агрессивного поведения среди молодежи.

Ключевые слова: *молодежь, агрессия, социальная среда, психологические факторы, девиантное поведение, киберагрессия, профилактика.*

Bugungi kunda jamiyat hayotida axborot texnologiyalari va internet tarmoqlarining o'rnini tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning kundalik hayotining muhim qismiga aylangan. Yoshlar ushbu virtual maydon orqali nafaqat axborot oladi, balki muloqot qiladi, fikr almashadi va o'z munosabatlarini bildiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarda uchraydigan salbiy mazmundagi axborotlar, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi materiallar, haqoratli munosabatlar va konfliktli muloqotlar yoshlarning ruhiy holati hamda xulq-atvoriga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

Yoshlar psixologik jihatdan ta'sirchan qatlam hisoblanadi. Ularning emotsional holati hali to'liq barqarorlashmaganligi sababli tashqi muhitdagi turli ta'sirlarni tez qabul qiladi. Ayniqsa, virtual muhitda muntazam uchraydigan agressiv munosabatlar, kamsituvchi izohlar yoki zo'ravonlikka oid kontentlar yoshlar ongida salbiy kayfiyatlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Bu esa yoshlar orasida tajovuzkorlik, keskinlik va agressiv xatti-harakatlarning kuchayishiga sabab bo'lish ehtimolini oshiradi.

Shu sababli yoshlar tajovuzkorlik kayfiyatining mohiyatini, uning shakllanish omillari va namoyon bo'lish xususiyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish muhim hisoblanadi. Avvalo, mazkur masalani chuqur tahlil qilish uchun "agressiya" va "tajovuzkorlik" tushunchalarining mazmuniga aniqlik kiritish zarur hisoblanadi.

Tajovuzkorlik inson xulq-atvorining murakkab ijtimoiy-psixologik ko'rinishlaridan biri bo'lib, u shaxsning boshqa insonlarga, jamiyatga yoki o'ziga nisbatan zarar yetkazishga qaratilgan salbiy munosabati va harakatlarida namoyon bo'ladi. Psixologiya va sotsiologiya fanlarida tajovuzkorlik "agressiya" tushunchasi bilan ham ifodalanadi. Ushbu holat insonning hissiy kechinmalari, ruhiy holati, tarbiyasi, ijtimoiy muhiti va biologik omillari bilan chambarchas bog'liqdir.

Tajovuzkorlik - bu insonning boshqa shaxsga, guruhga yoki o'ziga nisbatan zarar yetkazishga qaratilgan salbiy xatti - harakatlari, hissiy holati yoki munosabatidir.

Tajovuzkorlik ko'pincha g'azab, nafrat, ranjish, qo'rquv, stress yoki frustratsiya natijasida yuzaga keladi. Inson o'z ehtiyojlari qondirilmaganda, adolatsizlikka duch kelganda yoki ruhiy bosim ostida qolganda agressiv xatti-harakatlarni namoyon qilishi mumkin. Shu sababli tajovuzkorlik faqatgina jismoniy zo'ravonlik emas, balki og'zaki haqorat, tahdid, ruhiy bosim, mensimaslik yoki yashirin zarar yetkazish shaklida ham namoyon bo'ladi.

Ilmiy adabiyotlarda tajovuzkorlikka turlicha yondashuvlar mavjud. Sigmund Freud tajovuzkorlikni insonning tug'ma instinkti sifatida talqin qilgan. Uning fikricha, inson tabiatida vayronkor energiya mavjud bo'lib, u ma'lum vaziyatlarda tashqi ko'rinishga ega bo'ladi. Albert Bandura esa tajovuzkorlik inson tomonidan kuzatish, taqlid qilish va ijtimoiy muhit ta'sirida o'rganilishini ta'kidlagan. Masalan, oilada zo'ravonlikni ko'rib

ulg'aygan bola yoki internetdagi agressiv kontentlarni muntazam kuzatuvchi yoshlar tajovuzkor xulq-atvorni o'zlashtirishi mumkin.

Tajovuzkorlikning shakllari turlicha bo'ladi. Jismoniy tajovuz urish, itarish yoki tan jarohati yetkazishda namoyon bo'lsa, verbal tajovuz haqorat qilish, tahdid qilish yoki qo'pol muomala orqali ifodalanadi. Bundan tashqari, bilvosita tajovuz — g'iybat qilish, mensimaslik yoki ataylab ruhiy bosim o'tkazish shaklida ham uchraydi. Hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan davrda kiberagressiya, ya'ni internet orqali haqoratlash va ruhiy bosim o'tkazish holatlari ham keng tarqalmoqda.

Yoshlar orasida tajovuzkorlikning kuchayishiga turli ijtimoiy omillar sabab bo'ladi. Jumladan: oiladagi nizolar; noto'g'ri tarbiya; ota-onaning e'tiborsizligi; tengdoshlar ta'siri Ijtimoiy muhit ommaviy axborot vositalaridagi zo'rvonlik sahnalari; iqtisodiy qiyinchiliklar; stress va psixologik bosim; internet va ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siri. Ayniqsa o'smirlik va yoshlik davrida hissiy beqarorlik kuchli bo'lgani sababli tajovuzkorlik ko'proq uchraydi. Bu davrda yoshlar o'zini namoyon qilishga intiladi, mustaqil fikr bildirishni xohlaydi va tanqidni qiyin qabul qiladi. Natijada ayrim vaziyatlarda konfliktli va agressiv xatti-harakatlar yuzaga kelishi mumkun. Shu sababli ham bu yoshlarni ijtimoiy hayotiga, oilaviy munosabatlariga, jamoadagi o'rniga va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tajovuzkor yoshlar orasida huquqbuzarlik, zo'rvonlik, deviant xulq-atvor va jinoyatchilikka moyillik yuqori bo'lishi mumkin. Shu sababli tajovuzkorlikning oldini olishda oila, ta'lim muassasalari, mahalla va mutaxassislarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Demak, tajovuzkorlik biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanuvchi murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa hisoblanadi. Uni chuqur o'rganish va profilaktika choralarini ishlab chiqish yoshlar tarbiyasi hamda jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.[1]

Yoshlar tajovuzkorlik kayfiyati bugungi kunda jamiyat rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Chunki yoshlar jamiyatning eng faol, harakatchan va kelajak taraqqiyotini belgilovchi qatlamidir. Ularning ruhiy holati, dunyoqarashi va xulq-atvori jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik, tinchlik va ma'naviy muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli yoshlar orasida tajovuzkor kayfiyatning kuchayishi nafaqat individual, balki keng ijtimoiy oqibatlarga ham olib keladi. Yoshlar tajovuzkorligining ijtimoiy ahamiyati, avvalo, uning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga ta'sirida namoyon bo'ladi. Tajovuzkor kayfiyatdagi yoshlar ko'pincha konfliktlarga moyil bo'lib, atrofdagilar bilan sog'lom muloqot o'rnatishda qiyinchilikka duch keladilar. Natijada oilada, ta'lim muassasalarida va jamoalarda nizolar soni ortadi. Bu esa jamiyatdagi ijtimoiy muhitning buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, tajovuzkorlik yoshlar orasida deviant xulq-atvorning shakllanishiga ham olib keladi. Tajovuzkor kayfiyat uzoq davom etsa, ayrim hollarda:

- huquqbuzarlik
- bezorilik
- zo'rvonlik



-jinoyatchilik

-vandalizm

-giyohvandlikka moyillik kabi salbiy holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu jihatdan yoshlar tajovuzkorligi jamiyat xavfsizligi va ijtimoiy barqarorligiga tahdid soluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Albert Bandura ta'kidlaganidek, yoshlar agressiv xatti-harakatlarni kuzatish va taqlid qilish orqali o'zlashtiradilar. Agar jamiyatda zo'ravonlik, qo'pollik va agressiv munosabatlar keng tarqalgan bo'lsa, yoshlar buni odatiy hol sifatida qabul qilishi mumkin. Shu sababli jamiyatdagi ma'naviy muhit va ijtimoiy qadriyatlar yoshlar tajovuzkorligining oldini olishda muhim o'rin tutadi.

Yoshlar tajovuzkorligining yana bir muhim ijtimoiy ahamiyati — uning yoshlarning ruhiy salomatligi va ijtimoiylashuv jarayoniga ta'siridir. Tajovuzkor yoshlar ko'pincha jamoadan ajralib qoladi, atrofdagilar bilan munosabatlari yomonlashadi va ijtimoiy moslashuvda muammolarga duch keladi. Bu holat esa ularning kelajakdagi oilaviy hayoti, mehnat faoliyati va jamiyatdagi o'rniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda internet ham yoshlar tajovuzkor kayfiyatining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi filmlar, kompyuter o'yinlari, ijtimoiy tarmoqlardagi agressiv kontentlar yoshlarning ongiga salbiy ta'sir qilishi mumkin, ayniqsa kiberbulling va virtual zo'ravonlik yoshlarning ruhiy holatini izdan chiqaruvchi omillardan biri bo'lib bormoqda. Yoshlar tajovuzkorligining ijtimoiy ahamiyati shundaki, uni o'z vaqtida aniqlash va profilaktika qilish orqali jamiyatdagi ko'plab salbiy holatlarning oldini olish mumkin. Shu sababli: oilada sog'lom muhit yaratish; yoshlarni ma'naviy tarbiyalash; psixologik yordam tizimini rivojlantirish; ta'lim muassasalarida profilaktik ishlarni kuchaytirish; yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, yoshlar tajovuzkorlik kayfiyati nafaqat shaxsning individual muammosi, balki jamiyatning ijtimoiy-psixologik barqarorligiga ta'sir etuvchi muhim omildir. Uni chuqur o'rganish va samarali profilaktika choralarini ishlab chiqish sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Yoshlar tajovuzkorlik kayfiyati shaxsning ruhiy holati, emotsional kechinmalari va xulq-atvori bilan bog'liq murakkab psixologik hodisalardan biridir. U yoshlarning ichki hissiy zo'riqishi, g'azabi, noroziligi yoki ruhiy bosimining tashqi ko'rinishda namoyon bo'lish shakli hisoblanadi. Ayniqsa o'smirlik va yoshlik davrida inson ruhiyatida keskin o'zgarishlar sodir bo'lishi sababli tajovuzkorlik kayfiyati ko'proq uchraydi. Psixologik jihatdan yoshlar tajovuzkorligi shaxsning hissiyotlarni boshqarish darajasi, emotsional barqarorligi va ruhiy moslashuv qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir. Bu davrda yoshlar: o'z "meni"ni anglashga, mustaqillikka erishishga, jamiyatga qo'shilishga hamda jamiyatda o'z o'rnini topishga intiladilar. Biroq ayrim hollarda ularning ehtiyojlari va qiziqishlari qondirilmasa, tushunmovchiliklar yoki bosimlarga duch kelsa, bu frustratsiya holatini yuzaga keltiradi. Natijada yoshlarda agressiv kayfiyat, jahldorlik yoki konfliktlarga moyillik hamda jamiyatda boshqalarga nisbatan agressivlik holatlari shakllanishi mumkin.

John Dollard frustratsiyani tajovuzkorlikning asosiy psixologik manbalaridan biri sifatida izohlagan. Uning fikricha, inson maqsadiga erisha olmaganda yoki ehtiyojlari cheklanganda agressiv reaksiyalar yuzaga keladi. Yoshlar orasida bu holat ko'pincha: oilaviy muammolar; tengdoshlar bilan nizolar; o'qishdagi muvaffaqiyatsizlik; e'tiborsizlik; ijtimoiy bosim ta'sirida namoyon bo'ladi.

Albert Bandura esa tajovuzkorlikning psixologik shakllanishida kuzatish va taqlid muhim o'rin tutishini ta'kidlagan. Yoshlar atrofdagi insonlarning agressiv xatti-harakatlarini kuzatib, ularni xulq-atvor modeli sifatida qabul qilishlari mumkin. Ayniqsa oiladagi qo'pollik, zo'rvonlik yoki internetdagi agressiv kontentlar yoshlarning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Psixologik nuqtayi nazardan tajovuzkorlik ayrim hollarda himoya mexanizmi sifatida ham namoyon bo'ladi. Ya'ni yoshlar o'zidagi qo'rquv, ishonchsizlik, tushkunlik yoki ichki ziddiyatlarni yashirish uchun agressiv munosabatni tanlashlari mumkin. Bunday holatlarda tajovuzkorlik tashqi kuchlilik belgisi bo'lib ko'rinsada, aslida ichki ruhiy muammolarning ifodasi hisoblanadi. Yoshlar tajovuzkorlik kayfiyatining psixologik ahamiyati shundaki, u shaxsning ruhiy rivojlanishi, emotsional holati va ijtimoiy moslashuviga katta ta'sir ko'rsatadi. Tajovuzkor kayfiyatning kuchayishi: stressning ortishi; depressiv holatlar; o'zini nazorat qila olmaslik; kommunikativ muammolar; ijtimoiy yakkalanish kabi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.[2]

Shuningdek, uzoq davom etuvchi agressiv holat yoshlarning ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir qilib, ularning jamiyatdagi munosabatlarini murakkablashtiradi. Yoshlar tajovuzkorligining psixologik ahamiyati uni o'z vaqtida aniqlash va psixologik profilaktika choralarini ko'rish zaruratini ham belgilaydi. Yoshlarning emotsional holatini qo'llab-quvvatlash, stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish, psixologik maslahatlar tashkil etish va sog'lom ijtimoiy muhit yaratish tajovuzkorlikning oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

Demak, yoshlar tajovuzkorlik kayfiyati shaxsning ichki ruhiy kechinmalari, emotsional holati va ijtimoiy muhit ta'siri natijasida shakllanuvchi psixologik hodisa bo'lib, u yoshlarning xulq-atvori, ruhiy salomatligi va jamiyatdagi ijtimoiy moslashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda, yoshlar agressiyasini kamaytirish uchun ko'plab tadqiqotlar va maqolalar chop etilgan. Bu tadqiqotlar ko'pincha pedagogika va psixologiyaning sinovdan o'tgan usullari asosida amaliy tavsiyalar berishga qaratilgan. Hozirgi kunda oilaviy muhit, jamoat va maktabdagi tajribalar va psixologik metodlar yoshlar xulq-atvorini yaxshilashga qaratilgan. Ushbu tadqiqotlarning natijalari yoshlar agressiyasini kamaytirish bo'yicha tizimli yondashuvlar va usullarning samaraliligini ko'rsatmoqda. Psixologik va pedagogik ko'mak, oilaviy muhit, ijtimoiy treninglar va jamoat tashkilotlarining yoshlar bilan ishlashdagi ishtiroki muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Agressiv xulqni tuzatishdan ko'ra oldini olgan ma'qulroq deb hisoblaydi psixologlar. Agressiyani oldini olish nafaqat individual psixologik ish, balki ijtimoiy va ta'lim tizimi orqali ham amalga oshiriladi. Birinchi navbatda stressni kamaytiruvchi

texnikalarni qo'llash lozim. Bular meditatsiya, nafas mashqlari, sport va jismoniy faoliyatdir. Ikkinchidan, ijobiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bularga tinglash, konstruktiv tanqidni qabul qilish va o'z fikrini hurmat bilan ifoda etish kabilar kiradi. Uchinchidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga bo'lgan e'tibor bo'lib, unda do'stlar, oila va jamiyat tomonidan rag'batlantirish, yordam ko'rsatish masalalariga ahamiyat berilishi lozim. Ta'lim va tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim muassasalarida konfliktlarni boshqarish, empatiya va hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan treninglar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yoshlar orasida tajovuzkorlik kayfiyatining oldini olishda oilada sog'lom psixologik muhit yaratish, yoshlarning emotsional madaniyatini rivojlantirish, ta'lim muassasalarida profilaktik va psixologik ishlarni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, yoshlarni konfliktlarni tinch yo'l bilan hal qilish, stressni boshqarish va sog'lom muloqot ko'nikmalariga o'rgatish tajovuzkorlikning kamayishiga xizmat qiladi. Demak, yoshlar tajovuzkorlik kayfiyatini chuqur o'rganish va uning oldini olishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish barkamol avlodni tarbiyalash hamda jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tursunov, Sh. A. Ijtimoiy faoliyat va yoshlar agressiyasining kamayishi. Toshkent: "Yoshlar" nashriyoti. 2022
2. Джеймс, Р. Т. Youth and Aggression: Understanding the Roots and Responses. New York: HarperCollins Publishers. 2018